

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VII son, Iyun

MATBUOTDA KICHIK HAJVIY JANRLARNING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOT TAMOYILLARI (“MUSHTUM” JURNALI MISOLIDA)

Primov Shamsiddin Muhiddin o‘g‘li

*Buxoro davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi
va jurnalistika kafedrasи o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada yurtimiz matbuoti tarixida hajviy publitsistika, xususan, kichik hajviy janrlarning vujudga kelish va rivojlanish jarayonlari aks ettirilgan. Bundan tashqari hajviy janrlarning asosiy manbasi hisoblangan “Mushtum” jurnalining turli yillarda nashr qilingan kontentlari tahlil ostiga olingan.

Kalit so’zlar: hajviy publitsistika, kichik hajviy janrlar, “Mushtum” jurnali, lof, hajviy e’lon, hajviy xat, satira, humor.

Аннотация. В данной статье отражены процессы возникновения и развития сатирической публицистики, в частности, малых сатирических жанров в истории отечественной печати. Кроме того, проанализированы материалы, опубликованные в различные годы в журнале «Муштум», который считается основным источником сатирических жанров.

Ключевые слова: сатирическая публицистика, малые сатирические жанры, журнал «Муштум», хвастовство, сатирическое объявление, сатирическое письмо, сатира, юмор.

Annotation. This article highlights the emergence and development of satirical journalism, particularly the evolution of short satirical genres in the history of the national press. Additionally, the content published in various years of Mushtum magazine — regarded as a primary source of satirical genres — is analyzed.

Keywords: satirical journalism, short satirical genres, Mushtum magazine, boasting, satirical announcement, satirical letter, satire, humor.

Yurtimizda matbuotning yuzaga kelishi va taraqqiy etish davri bir yarim asrdan ziyod tarixni o‘z ichiga oladi. Ushbu davr mobaynida matbuotda yangidan yangi janr va shakllar yuzaga kelib, bir qanchasi o‘z o‘rnini boshqalariga bo‘shatib berishga ulgurdi. Bir yarim asr ichida yurtimizdagi ijtimoiy-siyosiy holat, siyosiy tuzum bir necha marta o‘zgarishga yuz tutdi. Bu matbuot ham o‘zgarib, yangi mazmun-mohiyat kasb etishiga olib keldi. Ayniqsa, mustaqillik yillarida matbuot rivojlanib, taraqqiy etib bordi. Uning moddiy texnik bazasining yangilanishi, so‘nggi yillarda zamонавиу raqamli media bilan integratsiyalashuvi yangi davrni boshdan kechirayotganidan dalolat beradi. Ammo shuncha o‘zgarishlarga qaramasdan, matbuotning o‘z oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalari hali hanuz o‘zgarganicha yo‘q. To‘g‘ri, hozirgi kunda jurnalistika rivojlangan sari matbuotga bo‘lgan e’tibor o‘tgan

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VII son, Iyun

asrga nisbatan butunlay boshqacha ko‘rinish kasb etmoqda. Ko‘pchilik, hatto kelajakda matbuot, xususan, bosma ommaviy axborot vositalariga bo‘lgan talab butunlay qolmasligi mumkin, degan fikrlarni ilgari surmoqda. Bunga sabab sifatida esa texnika asri “mo‘jizasi” bo‘lgan virtual axborot uzatish makoni hisoblanadigan internetning jadal rivojlanib borayotganini ta’kidlashadi. Shunga qaramasdan, matbuot ham o‘z shakli va xususiyatlarini davr talablari asosida moslashtirib kelmoqda. Buni janrlar misolida ham kuzatish mumkin.

Milliy matbuotimizning shunday janrlari mavjudki, ular vaqtli matbuotdan ancha oldin paydo bo‘lib, matbuot yuzaga kelganidan keyin to hozirgi kungacha o‘z o‘rni va ahamiyatini sira yo‘qotmasdan kelmoqda. Ana shunday yo‘nalishlardan biri bu hajviy publitsistika hisoblanadi. Hajviy publitsistikaning matbuotdagi o‘rni, uning vujudga kelishi va taraqqiyot tamoyillari haqida gap ketar ekan, ushbu sohaning chuqur bilimdoni, taniqli olim Muxtor Xudoyqulovning jurnalistika, uning ajralmas bo‘lagi hisoblanadigan hajviy publitsistika haqidagi qimmatli izlanishlarini, hajviy janrlar rivojlanish tamoyillarini o‘rganish, nazariy asoslarini ishlab chiqishdagi hissasini alohida ta’kidlash lozim.

Hajviy publitsistika publitsistikaning ajralmas qismi bo‘lib, milliy matbuotimiz yuzaga kelgan davrdan boshlab uning doimiy yo‘ldoshi hisoblanadi. Ayniqsa, kichik hajviy janrlar vaqtli matbuot mintaqamizda hali shakllanib ulgurmagan davrlarda adabiy tur sifatida o‘zini namoyon qilgan edi. Hajviy publitsistika haqida fikr yuritar ekan, olim M. Xudoyqulov shunday fikrlarni bildirib o‘tgan: “O‘zbek hajviy jurnalistikasi va publitsistikasining vujudga kelishi haqida fikr yuritganda bu ijtimoiy hodisa, avvalo, vaqtli matbuot hamda hajviy adabiyot bilan uzviy bog‘liqligini nazarda tutish lozim. Ya’ni hajviy publitsistikaning ko‘rinislari hali vaqtli matbuot vujudga kelmagan paytlarda... hajv va kulgi asarlarida namoyon bo‘lgan edi”⁴².

Yuqoridagi fikrga e’tibor beradigan bo‘lsak, o‘zbek hajvchiligi vaqtli matbuotdan oldin og‘zaki va yozma shaklda dastlab badiiy adabiyotda vujudga kelganligi ta’kidlab o‘tilmoqda. Keyinchalik esa vaqtli matbuot yuzaga kelishi bilan hajviy humor va satira matbuotning asosiy quroliga aylanib bordi. Ushbu jarayonlarning boshlanishi XIX asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri kelib, XX asr boshlarida ancha jadallahdi. Aynan shu davrlarda satira va humor shakllaridan jamiyatni tarbiyalash vositasi sifatida keng qo‘llanildi. Turkistonda ilgari faqat hajviy satira va humor shakllaridan iborat bo‘lgan adabiy jarayon vujudga keldi. Bundan oldingi adabiy janrlarda hajviy xususiyatlar boshqa adabiy janrlar tarkibida u yoki bu o‘rinda hajviy vosita sifatida uchrar edi, xolos. Ammo shu davrda milliy adabiyotimizda ham maxsus hajviy yo‘nalish yuzaga keldi. Bu borada o‘z davrining Turdi, Zavqiy, Muqimiyl, Furqat, Gulxaniy kabi taniqli adiblari qalam tebratdilar. Dastlab ular o‘z asarlarida satira va humor shakllaridan foydalanishdi. Keyinchalik esa vaqtli matbuot vujudga keligach, o‘z maqola va lavhalari bilan ushbu sohaning yurtimiz ijtimoiy hayotida rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shishdi.

⁴²Xudoyqulov M. O‘zbek hajviy publitsistikasining shakllanish va rivojlanish tamoyillari: filol.fan. nomz. ...dis. – Toshkent, 2001. 14-bet.

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VII son, Iyun

“O‘zbek hajviy jurnalistikasining bevosita, ya’ni matbuot turi sifatida paydo bo‘lishi Turkistonda vaqtli matbuot nashrlarining vujudga kelishi bilan bog‘liqdir”⁴³. Bu davrda xalqni ma’rifatga chorlashning eng asosiy yo‘llaridan biri bu vaqtli matbuot ekanligini birinchilardana bo‘lib ana shu ziyoli qatlama tushunib yetdi. Hajviy yo‘nalishda ijod qilgan adiblarning ijod yo‘llari haqida turli yillarda adabiyotshunos olimlar va tadqiqotchilar tomonidan keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borildi.

Yuqoridagi fikrlar asosida va kuzatishlarimiz natijasida kichik hajviy janrlarning shakllanish va taraqqiyot davrini shartli ravishda uchta davrga ajratishni lozim deb topdik. Bular quyidagicha:

- eng qadimgi hajviy shakllar paydo bo‘lgan davr;
- dastlabki vaqtli matbuot yuzaga kelgan davr;
- “Mushtum” jurnaliga asos solingan davr.

Barchamizga ma’lumki, insonda muloqot jarayoni paydo bo‘lgan davrdan boshlab adabiyot uning yo‘ldoshi hisoblanadi. Turkiy tilda yozilgan va bizgacha yetib kelgan eng qadimgi manbalarda ham hajviy shakl namunalari uchraydi. “O‘zbek yozma adabiyotida ham satira va yumor dastlabki davrlardan boshlaboq salmoqli o‘rin olib kelgan. Birinchi adabiy yodgorliklar namunasi bo‘lmish “Devonu lug‘otit-turk”da ham hajviy-hazil qo‘shiqlar ko‘p uchrashi ma’lumdir”⁴⁴. Shundan so‘ng hajviy janrlar bevosita adabiyot bilan bog‘liq holatda shakllanib, rivojlanib bordi. Bu davrga xos deyarli barcha ijodkor va adiblar hajviy janr namunalaridan u yoki bu ko‘rinishda o‘z ijodiy faoliyatida unumli foydalanganlar. Bu jarayon juda katta tarixiy davrni o‘z ichiga olganligi hech birimizga sir emas. Ushbu davrda shakllangan hajviy janrlar haqida turli yillarda juda ko‘plab adabiyotshunos olim va tadqiqotchilar tomonidan ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Shu sababdan biz ularning ijod namunalariga bevosita to‘xtalishni joiz deb bilmadik.

Ushbu jarayonda ham hayotning barcha jabha va sohalarida bo‘lgani kabi asosiy ishni ziyoli qatlama vakillari, ayniqsa, jadid jurnalistlarilari bajardilar. Ushbu davrdagi matbuot haqida N. Namazova shunday deydi: “Publitsistika tarixiga doir manbalarni kuzatganda o‘zbek hajviy publitsistikasi 1918-yildan yangi rivojlanish davriga qadam qo‘yanini ko‘rish mumkin. Bu davrga kelib tahririyatlarda gazeta va jurnallarning xalq orasiga kirib borishida hajviy materiallarning roli oshgan. To‘g‘ri, bu paytgacha chop etilgan jadid matbuotida ham hajviy publitsistika namunalarini uchratish mumkin”⁴⁵. Aynan ular vaqtli matbout nashrlariga asos solib, ulardagи kontentlarning asosiy qismiga mualliflik qilishdi. Ushbu davrdagi vaqtli matbuot nashrlarini tadqiq etgan olim Muxtor Xudoyqulov o‘zining nomzodlik va doktorlik ilmiy ishlarida, asosan, hajviy publitsistikaning nisbatan katta janrlari bo‘lmish felyeton, pamflet, masal, hajviy maqola, hajviy she’r va g‘azallar va

⁴³ Xudoyqulov M. O‘zbek hajviy publitsistikasining shakllanish va rivojlanish tamoyillari: filol.fan. nomz. ...dis. – Toshkent, 2001. 15-bet.

⁴⁴ Xudoyqulov M. O‘zbek hajviy publitsistikasining shakllanish va rivojlanish tamoyillari: filol.fan. nomz. ...dis. – Toshkent, 2001. 15-bet.

⁴⁵ Namozova N. Hajviy publitsistikada munosabat va nuqtayinazar.// Til va adabiyot ta’limi. – 2021. №12. 15-bet.

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VII son, Iyun

boshqa janrlar haqida atroflicha fikr yuritgan. Hajviy publitsistik a janrlar vaqtli matbuot vujudga kelgan davrda mana shu katta hajviy janrlar asosida shakllandi. Kichik hajviy janrlar esa dastlabki vaqtli matbuotda shu katta janrlar tarkibida u yoki bu shaklda uchragan. Kichik hajviy janrlarning adabiy shakldan mustaqil publitsistik janr sifatida shakllanishida “Mushtum” jurnali va “Jayra” gazetasining o‘rnii juda beqiyos. Bu jarayon mana bir asrki “Mushtum” jurnali orqali davom etib kelmoqda. Biz shularni inobatga olgan holda ushbu tadqiqot ishimizni “Mushtum” jurnali asosida olib borishni joiz deb bildik.

Millatimizning bir asrdan beri ajralmas yo‘ldoshi bo‘lib kelayotgan “Mushtum” jurnaliga 1923-yil 18-fevral sanasida Abdulla Qodiriy va uning maslakdoshlari tominidan asos solingan. Uning dastlabki bosh muharriri G‘ozi Yunus (1923–1924), ilk bosh rassomi Ishtvan Tula hisoblanadi⁴⁶. Shu davrdan boshlab to hozirgi kungacha jurnalda Komil Alimov (1925–1926), Ziyo Said (1927–1931), G‘ulomnazir G‘ofurov (1931–1934), Jumaniyoz Mahmudov (1939), Husayin Shams (1940–1941), Mumtoz Muhamedov (1952–1955), Akmal Po‘lat (1956–1960), Zokir Yo‘ldosh (1961–1962), Mirmuhsin (1962–1971), Ibrohim Rahim (1972–1984), Maqsud Qoriyev (1985–1988), Jo‘ra Sa’dullayev (1989–1990), Ne’mat Aminov (1990–1996), Ashurali Jo‘rayev (1996–2006), Nosirjon Toshmatov (2007-yildan hozirgacha) kabilar bosh muharrirlik qilishdi. Jurnal esa e’lon qilingan davrdan buyon yurtimizdagi eng asosiy hajviy nashr hisoblanadi.

“Mushtum” jurnali haqida fikr yuritishdan oldin ushbu so‘zning lug‘aviy ma’nosiga e’tibor beradigan bo‘lsak, “mushtum” – forscha musht so‘zidan olingan bo‘lib, kaft-panjaning zarb uchun siqimlangan holati⁴⁷ degan ma’noni anglatadi. Nima uchun aynan jurnalga shunday nom berilgani haqida ushbu jurnalning 1923-yil 18-fevralda chiqqan 1-sonida yurtimizning ma’rifatparvar farzandi taniqli adib, jurnalning ilk tashkilotchilaridan biri Abdulla Qodiriy “Julqunboy” taxallusi bilan chop etilgan “Mushtum ta’rifi” no mli maqolasida atroflicha izohlab bergan. “Mahalla-ko’ylarimizda bitta-bitta yog‘on – bo‘yni g‘avslar borlig‘ini har bir kimsa bilur va ularning mahalla ijtimoiyatida o‘ynarturg‘on rollari ham katta-kichikka belgulikdir. Bizning tekshirish va kashfiyotimizcha, asl xususiyat bo‘yni yo‘g‘onlikda bo‘lmay, uning zamiridagi mushtdadir va mushtumzo‘rlikdadir.

Lekin bu ta’rif jahongir va burjuaziya faylasuflari nuqtayi nazaridan bo‘lib, ammo proliariatning mushtga bo‘lgan nazariyasi buning aksidir. Jurnalimiz shu, keyingi qo‘li qadoqlar sinfining mushtumi bo‘lg‘onligidan uning ma’nosini ham haligi ta’rifning tamoman aksidir. Bu mushtumzo‘rlik mushtumi emas, mazlumlar mushtumidir. Shuning uchun buning ma’nosini ham boshqachadir⁴⁸.

Barcha nashriyotlarda bo‘lgani sari “Mushtum” ham bir asrlik hayoti davomida turli qiyinchiliklarni boshidan kechirdi. Bunga oddiy misol Abdulla Qodiriyning 1923-yil 12-

⁴⁶ Bobojonov R. Jurnalning yangisoni. // Xalq so‘zi. – 2021. 13-oktabr.

⁴⁷ O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi. J. IV. Tartibot – Shukr/Tahrir hay’ati: T.Mirzayev va boshq.; O‘zR FA Til va adabiyot instituti. – T.: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” давлат нashriyoti. 2008.

⁴⁸ Julqunboy. Mushtum ta’rifi. // Mushtum. – 1923. – № 1.

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VII son, Iyun

sonda e'lon qilingan "Mushtum" oqsoqlang'an emish" maqolasini keltirib o'tsak bo'ladi. "Bu xabar el og'zida bir -ikki oydan beri yuribdir. "Mushtum" nimaga o'z vaqtida chiqmaydir, "Mushtum" musht yedimi, nima bo'lsa-da, "Mushtumni davom etdirish kerak, degan savol va tilaklar idorag'a yomg'urdek yog'ib turadir... Yo'q, "Mushtum" musht yemadi. "Mushtum" davomidan to'xtamadi, ham to'xtamas degan umiddamiz. Lekin masalaning uchi mulla-mirjiring chevron alayhissalomga borib taqaladir. "Mushtum" hukumat hisobidan chiqmaydir"⁴⁹.

Shundan keyin ziyoilalar o'z tashabbuslari bilan xalqimizning ma'naviy targ'ibotchisi bo'lgan jurnalni saqlab qolishga intilishdi. Jurnal ham bir asrga yaqin davr mobaynida xalqimizga beminnat, bekamu-ko'st xizmat qildi. Yuqoridagi moliyaviy tanglik jurnalning boshidagi yagona sinov emas edi. Butun dunyoda boshlangan va barcha sohalarga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazgan Covid-19 pandemiyasi davri va undan keyingi moliyaviy qiyinchiliklar davrida jurnal yana o'z faoliyatini to'xtatishga majbur bo'ldi. Ammo bu qiyinchiliklar hamadolat uchun ko'tarilgan "Mushtum"ning qaddini ega olmadi. "2021 -yil 12-oktabr sanasida O'zbekiston Milliy Matbuot markazida "Mushtum" jurnalining qayta tashkil etilishiga bag'ishlangan matbuot anjumani bo'lib o'tdi"⁵⁰. Shu kundan boshlab xalqimizning sevimli nashri yana o'z faoliyatini davom ettira boshladi.

"Mushtum" jurnali ilk marta 1923-yilda nashr etilishi bilan juda ko'plab adiblar o'z maqola va asarlarini ushbu jurnalda e'lon qilishdi. Ana shunday ishga birinchilardan bo'lib Cho'lpon qo'l urdi. Adib jurnalning 1924-yil 5-sonida "Taraqqiy" nomli hajviy maqolasini e'lon qiladi. Bu maqolada o'z davrining aysh-ishratga berilgan yoshlarni achchiq kulgi asosida fosh etadi. Bundan tashqari Cho'lpon turli vaqtli matbuot nashrlari orqali ham xalq orasida "Mushtum" jurnalining keng tarqalishi uchun o'z hissasini qo'shdi. Bunga misol qilib "Farg'ona" gazetasining 1924-yil 10-aprel soni 19-betida "Qalandar" imzosi bilan bosilgan "Mushtum"ning 25-soni" nomli maqolasini olish mumkin. Ushbu maqolada "Mushtum" jurnalining 25-o'ziga xos yubiley soni chiqishi munosabati bilan jurnalda A.Qodiriy, G.Yunus, Cho'lpon va boshqalarga o'rtoqlik hazil rasmlari berilgan. Cho'lpon hamkasblarini tabriklash bilan birga o'zining ayrim tilaklarini ham bayon etgan"⁵¹.

Bundan tashqari adib taniqli rus masalchisi I.Krilovning "Bo'ri bilan qo'zichoq" masalini tarjima qilib jurnalning 1936-yil 1-sonida e'lon qiladi.

Yuqoridagilardan tashqari ushbu jurnal adabiyotimiz boy xazinasidan o'rin olgan juda ko'plab nodir asarlarning birinchi e'lon qiluvchisi hisoblanadi. Bular qatorida A. Qahhorning hajviy hikoyalari, G. G'ulomning "Shum bola" qissasi, qolaversa, endigina 7-sinfda o'qiydigan Erkin Vohidovning "Sobirjonning tuflisi" hajviy she'ri ham ayni mana shu jurnal orqali xalqimizga yetib kelgan.

"Mushtum" jurnali ham dastlab asos solingen vaqtarda boshqa vaqtli matbuot nashrlari singari hajviy publitsistikating nisbatan katta janrlari bo'lmish hajviy maqola va

⁴⁹ Qodiriy A. Mushtum oqsoqlang'an emish. // Mushtum. –1923. – № 12.

⁵⁰ Bobojonov R. Jurnalning yangi soni. // Xalq so'zi. 2021. 13-oktabr.

⁵¹ Cho'lpon A. Asarlar. 4 jiddlik. J.IV. – Toshkent: Akademnashr. 2016. 20-bet.

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VII son, Iyun

felyetonlardan unumli foydalandi. Bu borada taniqli adib Abdulla Qodiriyning xizmatlari beqiyos. Shu davrda uchraydigan kichik hajviy janrlar u qadar ko‘p emas edi. Dastlabki yillarda e’lon qilingan materiallarga e’tibor beradigan kichik hajviy janrlarning, asosan, hajviy xabar, kichik hajviy maqola, hajviy e’lon, hajviy xat kabi sanoqli yo‘nalishlaridan foydalanilgan. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, jurnalning asosiy kontentlar katta hajviy janrlarga oid ekanligi ko‘zga tashlanadi. Quyida “Mushtum” jurnalining 1936-yil 10-son 8-betida “Domla Ananis” taxallusi bilan e’lon qilingan kichik hajviy xabarni ko‘rib o‘tamiz.

Sirk “rekord”chisi

Chiroqchi rayon Qiziltepa jamoasidagi “Qizil O‘zbekiston” kolxozi qoshida sirk tashkil etilib, bunga qiziqqan havaskorlar tortilgan edi. Havaskorlardan kolxozning prrandachilik ferma mudiri Abdulla Qo‘ziyev o‘z rolida rekord oldi.

Uning “rekord”i shundan iboratki, bir iljayib, ikki martaba qiyshayib to‘rt tomonga qara b chiqib, birdaniga 300 tovuq va 25 ta xo‘rozni yutib jamoat oldida hazm qilib yubordi.

Bu albatta, rayonda yagona bo‘lgan bir fermaning nom chiqarishi, “taraqqiyoti” uchun katta sabab demakdir. “Rekordchi o‘zining bu muvaffaqiyati uchun oladurg‘on “mukofotni” kuta-kuta, ko‘zi teshila yozdi-yu, hali hech kimning xabari yo‘q.

Yuqoridagi hajviy xabar namunasi orqali o‘z davrining eng dolzarb bo‘lgan ijtimoiy mavzusi yumoristik mubolag‘a orqali ko‘rsatib berilgan. Bu yerdagi havaskor sirk guruhi va sirk tomoshasidagi “record” degan tushunchalar to‘qima jarayon bo‘lib oddiy bir axborotni hajviy shaklga o‘tkazish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Agar ushbu vositalar qo‘llanilmaganida Chiroqchi rayonida parrandachilik fermasining mudiri Abdulla Qo‘ziyev degan odam 300 ta tovuq va 25 ta xo‘rozni o‘z manfaati yo‘lida talon-taroj qilgan degan oddiy axborot berilar edi. Bu esa berilayotgan xabarning ta’sir etish kuchini ancha kamaytiradi. Ko‘rinib turibdiki, kichik hajviy xabarlar oddiy xabar shaklidagi kontentdan o‘zining badiiy tasviriy vositalari hisoblanmish yumor, satira, mubolag‘a va boshqa unsurlari bilan tubdan farq qiladi.

Jurnalning ilk yillaridan buyon uchraydigan yana bir kichik hajviy janr namunasi bu kichik hajviy e’lonlar hisoblanadi. Jurnalning 1936-yil 18-sonida “Toshkent sarguzashtlari” rukni ostida “Qalb qozoni qaynamas, qaynasa ham quyulmas”, “Ehtiyyot bo‘linglar”, “Sichqon dom”, “Qo‘lim tegmaydi, – dedim” sarlavhali hajviy e’lonlar berib o‘tilgan. Kichik hajviy e’lonlar “Mushtum” jurnalining asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Bu janr namulari uning butun faoliyati davomida jurnalda berib borilganligi bilan ahamiyatlidir. Masalan, jurnalning eng taraqqiy etgan davri bo‘lgan 1960–1970-yillarda nashr etilgan sonlarini ko‘zdan kechiradigan bo‘lsak, kichik hajviy e’lonlar deyrli har bir sonda berib borilgan. Quyida hajviy e’lonlardan namunalarga e’tibor qaratamiz:

“Bildirish

Bolalar qo‘sishqlari plastinkalarini ishlab chiqarish tuyaning dumি yerga tekkanida boshlanadi, xaridorlar tishni-tishga qo‘yib yuraversin.

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VII son, Iyun

Toshkent grammoplastinka zavodi direksiysi.

Bemorlar bilib olsin!

Medpunktga kelganda cho'ntakka pul solib keeling, har bir ukol uchun 5 so'm, dorilar uchun 14 so'mdan 42 so'mgacha pul olaman. Medpunktning eshigi qulf bo'lsa, kutib o'tirilmasin, men ovga ketgan bo'laman!

Vobkent rayon "O'zbekiston" kolxozidagi medpunkt feldsheri: Omonjon Rustamov".

Biz yuqoridagi misollar orqali jurnalning dastlabki davrlaridan boshlab to hozirgi kungacha foydalanib kelinayotgan kichik hajviy janrlar haqida to'xtalib o'tdik. Endigi fikrlarimiz jurnalda nisbatan keyinroq paydo bo'lgan kichik hajviy janrlar haqida bora di. Demak, jurnal taraqqiy etgan sari undagi janrlar ko'lami ham yildan yilga ko'payib, boyib borgan. Yana bir narsani ta'kidlashni o'rini deb bildik, ya'ni jurnalda janrlar barchasi ham bir davrda yuksalib, barchasi bir vaqtida e'lon qilingan, degan xulosaga kelmaslik kerak. Sababi qaysidir janr ma'lum bir davrda vujudga kelib, ma'lum bir davrda juda yaxshi taraqqiy etadi. Shundan so'ng o'z o'rnini davr taqozosiga ko'ra boshqa bir janrga bo'shatib beradi. Jurnalda nisbatan keyinroq e'lon qilingan janrlar sirasiga biz, shartli ravishda, loflar, epigramma va telefonogramma kabi janrlarni kiritib o'tdik. Lof va epigramma janriga oid bo'lgan kontentlarning jurnalda uchrashi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlanadi. Bu ikki janrining yuksalgan davri sifatida esa 60-70-yillarni ko'rsatib o'tish joiz. Bu davr oralig'ini nafaqat lof va epigramma janrining, balki "Mushtum" jurnalining ham eng ommalashgan va ijodiy yuksalgan davri sifatida e'tirof etish mumkin. Keyinchalik esa texnik vositalar rivojiana borgan sari telefonogrammalar ham yuzaga keldi.

Telefonogrammalar, asosan, telefon suhbatlari asosida yuzaga chiqadigan hajviy janr hisoblanadi. Ulardagi suhbatlar ko'p holatlarda tahririyatga qo'ng'iroqlar yoki ikki qahramonning o'zaro suhbatni natijasida yuzaga keladi. Ushbu janr namunalari hajviy xatlarning zamonaviy ko'rinishi sifatida e'tirof etilishi mumkin edi. Ammo ular hajviy xatlarni surib chiqara olmadi. Hajviy xat, hajviy xabar va hajviy e'lonlar hozirgi kunda ham jurnalning eng ommalashgan janrlari sifatida qo'llanilmoqda.

Telefonogrammalar o'zi bilan bir davrda shakllangan lof va epigrammalar singari ommalashib ketmadi. Hozirgi kunda ham telefonogrammalar jurnalda juda kam qo'llanadigan janrlar sirasiga kiradi. Shu tariqa "Mushtum" jurnali o'zining bir asrlik faoliyati davomida kichik hajviy janrlarning juda ko'plab namunalaridan unumli foydalandi.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Xudoyqulov M. O'zbek hajviy publisistikasining shakllanish va rivojlanish tamoyillari: filol.fan. nomz. ...dis. –Toshkent, 2001.
2. Namozova N. Hajviy publisistikada munosabat va nuqtayi nazar. // Til va adabiyot ta'limi. – 2021. №12. 15-bet.
3. Bobojonov R. Jurnalning yangi soni. // Xalq so'zi. – 2021. 13-oktabr.

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VII son, Iyun

4. O'zbek tilining izohli lug'ati:80000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. J. IV. Tartibot – Shukr/ Tahrir hay'ati: T.Mirzayev va boshq.; O'zR FA Til va adabiyot instituti. – T.: “Ўзбекистон Миллый энциклопедияси” davlat nashriyoti. 2008
5. Julqunboy. Mushtum ta'rifi. // Mushtum. –1923. – № 1.
6. Qodiriy A. Mushtum oqsoqlang'an emish. // Mushtum. –1923. – № 12.
7. Cho'lpox A. Asarlar. 4 jildlik. J.IV. – Toshkent: Akademnashr. 2016. 20-b.